

55 -sonli SHARTNOMA
(Oziq-ovqat mahsulotlarini etkazib berish haqida)

“ 02 ” fevral 2022 yil

Denov tumani

“Afrosiyob GSSICHK” bundan buyon “Ta`minotchi” deb ataluvchi, rahbari A.Narzullaev Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va Denov tuman “Maktabgacha ta`lim bo`limi”, bundan buyon “Buyurtmachi” deb ataluvchi, rahbari A.Inatullayev Nizom asosida ish yurituvchi O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to`g`risida”gi 670-1-sonli Qonuni talablariga rioya qilgan holda ushbu shartnomani quyidagilar to`g`risida tuzdilar:

1.Shartnoma predmeti.

1.1.“Ta`minotchi”, “Buyurtmachi” extiyoji uchun lozim bo`lgan oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi, “Buyurtmachi” esa Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to`lovlarni amalga oshiradi.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining narxi va umumiy qiymati.

2.1.Oziq-ovqat mahsulotlarining qiymati Respublikamiz milliy valyutasi so`mda belgilanadi

	Maxsulot nomi	O`lchov birligi	Miqdori	Narxi	QQS 1,15%	QQS siz	Umumiy summasi
1	<i>Qolipli non 1-nav (600gr)</i>	dona	806,0	2 500	262 826,09	1 752 173,91	2 015 000
2	<i>Bug`doy uni 1-nav (qozoq uni)</i>	kg	127,0	6 500	107 673,91	717 826,09	825 500
3	<i>Makaron</i>	kg	95,0	8 000	99 130,43	660 869,57	760 000
4	<i>Kartoshka kukuni</i>	kg	2,7	33 000	11 621,74	77 478,26	89 100
5	<i>Manniy yorma</i>	kg	97,0	10 000	126 521,74	843 478,26	970 000
6	<i>Guruch (alanga)</i>	kg	95,0	10 000	123 913,04	826 086,96	950 000
7	<i>Grechka</i>	kg	100,0	14 000	182 608,70	1 217 391,30	1 400 000
8	<i>Gorox</i>	kg	81,0	8 500	89 804,35	598 695,65	688 500
9	<i>No`xat</i>	kg	14,0	20 000	36 521,74	243 478,26	280 000
10	<i>Oq loviya</i>	kg	17,0	15 000	33 260,87	221 739,13	255 000
11	<i>Perlovka</i>	kg	82,0	7 500	80 217,39	534 782,61	615 000
12	<i>Mosh</i>	kg	24,0	16 000	50 086,96	333 913,04	384 000
13	<i>Guruch oqshog`i</i>	kg	12,0	3 500	5 478,26	36 521,74	42 000
14	<i>Shakar</i>	kg	363,0	9 000	426 130,43	2 840 869,57	3 267 000
15	<i>Konfet</i>	kg	48,5	25 000	158 152,17	1 054 347,83	1 212 500
16	<i>Mevali pavidlo</i>	litr	48,0	15 000	93 913,04	626 086,96	720 000
17	<i>Quyiltirilgan sut</i>	dona	62,0	26 000	210 260,87	1 401 739,13	1 612 000
18	<i>Sariyog` 82,5 %</i>	kg	309,5	52 000	2 099 217,39	13 994 782,61	16 094 000

19	<i>o`simlik (kungaboqar)yog`i</i>	litr	141,45	18 000	332 100,00	2 214 000,00	2 546 100
20	<i>Mol suti</i>	litr	680,0	5 500	487 826,09	3 252 173,91	3 740 000
21	<i>Kefir 1 L</i>	litr	736,0	4 500	432 000,00	2 880 000,00	3 312 000
22	<i>Smetana</i>	litr	68,5	16 000	142 956,52	953 043,48	1 096 000
23	<i>Tvorog</i>	kg	129,5	30 000	506 739,13	3 378 260,87	3 885 000
24	<i>Pishloq</i>	kg	83,0	50 000	541 304,35	3 608 695,65	4 150 000
25	<i>Mol go`shti</i>	kg	56,5	60 000	442 173,91	2 947 826,09	3 390 000
26	<i>Tovuq go`shti (muzlatilgan)</i>	kg	129,87	28 000	474 307,83	3 162 052,17	3 636 360
27	<i>Tuxum</i>	dona	2092,0	1 200	327 443,48	2 182 956,52	2 510 400
28	<i>Kartoshka</i>	kg	1473,0	4 000	768 521,74	5 123 478,26	5 892 000
29	<i>Muzlatilgan Balik</i>	kg	70,0	35 000	319 565,22	2 130 434,78	2 450 000
30	<i>Tomat</i>	kg	83,5	20 000	217 826,09	1 452 173,91	1 670 000
31	<i>Osh qovoq</i>	kg	311,6	4 500	182 895,65	1 219 304,35	1 402 200
32	<i>Sabzi</i>	kg	879,0	3 000	343 956,52	2 293 043,48	2 637 000
33	<i>Piyoz</i>	kg	851,0	2 500	277 500,00	1 850 000,00	2 127 500
34	<i>Lavlagi</i>	kg	207,0	2 500	67 500,00	450 000,00	517 500
35	<i>Karam</i>	kg	421,5	4 000	219 913,04	1 466 086,96	1 686 000
36	<i>Olma</i>	kg	618,0	10 000	806 086,96	5 373 913,04	6 180 000
37	<i>Banan</i>	kg	265,0	20 000	691 304,35	4 608 695,65	5 300 000
38	<i>Uzum</i>	kg	30,0	10 000	39 130,43	260 869,57	300 000
39	<i>Ko`katlar</i>	bog`	10,0	250	326,09	2 173,91	2 500
40	<i>Quruq meva</i>	kg	105,0	20 000	273 913,04	1 826 086,96	2 100 000
41	<i>Ko`k choy</i>	kg	95,7	40 000	499 304,35	3 328 695,65	3 828 000
42	<i>Tuz</i>	kg	53,0	2 000	13 826,09	92 173,91	106 000
43	<i>Kakao</i>	kg	14,1	60 000	110 347,83	735 652,17	846 000
44	<i>Achitqi (drojja)</i>	kg	3,00	37 000	14 478,26	96 521,74	111 000
45	<i>Sholg`om</i>	kg	351,0	3 000	137 347,83	915 652,17	1 053 000
46	<i>Turp</i>	kg	147,0	3 000	57 521,74	383 478,26	441 000
<i>Jami :</i>					12 925 455,65		99 095 160

2.2 Shartnoma umumiy summasi 99 095 160 (To`qson to`qqiz million to`qson besh ming bir yuz oltinchi) **sumlik** jami 46 (qirq olti) dona oziq-ovqat maxsulotlarini tashkil qiladi.

2.3 "Ta`minotchi" oziq-ovqat mahsulotlarning qiymati narx oshganligi natijasida o`zgarganda, "Buyurtmachi"ga oldindan xabardor qilib, tovar moddiy boylikning o`zgargan narxini asoslangan holda sotadi.

2.4 "Buyurtmachi" o`zgargan narxlar asosida qo`shimcha to`lovlarni byudjetda ko`rsatilgan (belgilangan miqdor) doirasida amalga oshiradi.

3. To`lov shartlari.

3.1 "Buyurtmachi" oziq-ovqat mahsulotlari to`liq qiymatining oldindan 30% foizi 29728548 miqdorda 3 bank ish kunida "Ta`minotchi"ning maxsus hisob raqamiga pul o`tkazish yo`li bilan to`lovni amalga oshiradi.

3.2 Oziq-ovqat mahsulotlari to'liq yetkazgandan so'ng (yuk xati) asosida 5 bank ish kunida qolgan 70% to'lov "Ta'minotchi"ning maxsus hisob raqamiga o'tkazib byeriladi.

3.3 "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda "Ta'minotchi" shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlarni byermaslikga xaqli bo'ladi.

3.4 "Ta'minotchi" tomonidan Oziq-ovqat mahsulotlari o'z vaqtida yetkazib bermasa, buning natijasida ikkinchi tomon jiddiy zarar ko'rsa bir tomonlama shartnomani bekor qilishga asos bo'ladi.

4. Tovar moddiy boylikni yetkazib byerish tartibi.

4.1. Oziq-ovqat mahsulotlari belgilangan vaqtda "Buyurtmachi" tomonidan (manzil) Denov tumanda joylashgan "Ta'minotchi"ning omborxonasidan oladi.

4.2. Oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib byerish tartibi ushbu shartnomaning 3.1. bandiga asosan pul mablag'lari "Ta'minotchi"ning hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng 3 bank ish kunida bajarilishi shart.

4.3. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020 yil 28 maydagi 24-son O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar"ni tasdiqlash haqida buyrug'iga 1-ilova bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi buxgaltyeriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar"ning 93-bandiga muvofiq "Tashkilot tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yetkazib byeruvchilardan tovar-moddiy zaxiralar olish uchun ishonchli shaxsga yozma ishonchnoma byeradi. Ishonchli shaxs unga ishonchnoma bo'yicha byerilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi"

4.4. Ishonchnoma noto'g'ri rasmiylashtirilgan holda "Ta'minotchi" tovar moddiy boyliklarni chiqarishdan bosh tortishga xaqli.

4.5 "Buyurtmachi" tovar moddiy boyliklarni "Ta'minotchi"ning omboridan olib ketish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

5. Tomonlarning majburiyatlari.

5.1 "Ta'minotchi" majburiyatlari:

- Oldindan shartnomaning 3,1 bandini amalga oshirilgandan keyin, "Buyurtmachi"ga shartnomada ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi;

- "Buyurtmachi"ga Oziq-ovqat mahsulotlarining servis kitobchasini, pasportini, xisob ma'lumotnoma va yaroqlilik sertifikatidan nusxa taqdim qilish;

- Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib kelinganligi xaqida "Buyurtmachi"ni xabardor kiladi.

5.2 "Buyurtmachi" majburiyatlari:

- Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilib olguncha "Ta'minotchi"ning omborxonasida obdon ko'zdan kechiradi va uning sifatiga, butligiga, yaroqliligiga e'tibor byeradi;

- Agar oziq-ovqat mahsulotlar talabga javob byermasa, ya'ni sifatsiz bo'lib, is'temolga yaroqsiz bo'lsa "Buyurtmachi" qabul qilmaslikga va o'rniga boshqasini almashtirib byerishini talab qilishga xaqli bo'ladi.

- Oziq-ovqat mahsulotlarini "Ta'minotchi" omborxonasidan "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilingandan keyin javobgarlik to'liq "Buyurtmachi" tomoniga o'tadi.

6. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining asosan 25-32 bandlari bo'yicha javobgar bo'ladi.

6.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, "Buyurtmachi" kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,4 miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% foizdan oshmagan miqdorda penya tulaydi.

6.3. Tovar moddiy boylikni yetkazib byerishni kechiktirganligi uchun "Ta'minotchi" kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 % miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% foizdan oshmagan miqdorda penya tulaydi.

6.4. "Buyurtmachi" tomonidan Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlatilishi jarayonida sodir etilgan qonun buzilish hollari uchun "Ta'minotchi" majburiyat olmaydi.

6.5.Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.6.Shartnomani bajarishdan (shartnomada ko'rsatilgan holatlardan tashkari) bir tarafdama bosh tortishga yoki bir tarafdama o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Korruptsiyaga qarshi kurashish va boshqa shartlar

7.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8. Qo'shimchalar.

8.1.Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar qonuniy kuchiga ega bo'ladi. O'zgarish va qo'shimchalar shartnomaga ilova qilinishi ham mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muxri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

9. Fors-major.

9.1.Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayritabiiy holatlar suv toshqini, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, xech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar xisoblanmaydilar.

10. Shartnomaning amal qilish muddati.

10.1.Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasida ruyxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2.Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun ham teng kuchga ega bo'lib bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.


11. Tomonlarning yuridik manzili.

Ta'minotchi

Istemolchi

Nomi- Afrosiyob GSSICHK
Manzil-Denov shaxri Astanaqulov ko'chasi 132 uy
Tel.+99895 502 21 61
X/R- 20210000804047823001 INN- 203246571
Bank nomi-Milliy bank Denov filiali
MFO-00845 OKONX-71150
Raxbar-A.Narzullaev

NOMI: Denov tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
MANZIL :Denov shaxar Mustakillik ko'chasi 43
x/r 1000 2286 0222 1070 911 0025 1032
INN-207266591
Denov tuman buyicha G'aznachilik bulinmasi
x/r-2340 2000 3001 0000 1010 Toshkent sh XKKM
MFO-00014 INN-201122919
Raxbar- A.Inatullaev



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA** H000555211

1.Loyihaning turi: Xo'jalik shartnomasi

2.Loyihaning nomi.

“Afrosiyob GSSICHK” “Ta`minotchi” rahbari A.Narzullaev Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va Denov tuman “Maktabgacha ta`lim bo`limi” “Buyurtmachi” rahbari A.Inatullayevlar o`rtasida “Buyurtmachi” extiyoji uchun lozim bo`lgan 99 095 160 (To`qson to`qqiz million to`qson besh ming bir yuz oltmish) sumlik jami 46 (qirq olti) dona oziq-ovqat maxsulotlarini yetkazib berish, “Buyurtmachi” esa Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to`lovlarni amalga oshirish to`g`risida.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Denov tuman Denov tuman maktabgacha ta`lim bo`limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o`tkazish uchun 2022 yil 02 fevralda kiritilgan.

X U L O S A

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Denov tuman Yuridik xizmat ko`rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**

2022/02/02



A.B.Xatamov.

H000555211